PROKUROR TOMONIDAN JINOYAT ISHINI QO‘SHIMCHA TERGOVGA QAYTARISH JARAYONIDA UCHRAYDIGAN PROTSESSUAL MUAMMOLAR

Tursunov Muhammadmo‘min Abrorjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Moliyaviy-huquqiy monitoring yo‘nalishi
magistratura talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20021308

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (bundan buyon JPK) 385-moddasiga muvofiq prokuror tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish instituti, uning huquqiy asoslari, amaliyotda yuzaga kelayotgan protsessual muammolar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan sud-huquq islohotlari kontekstida tergov sifatini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda raqamlashtirish bo‘yicha aniq takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: Jinoyat-protsessual kodeksi, Qo‘shimcha tergov, Prokuror nazorati, Protsessual muammolar, Tergov muddatlari, Dalillarning nomaqbulligi, Tergovga tegishlilik, Inson huquqlari, Sud-huquq islohotlari, Raqamlashtirish, E-tergov, Elektron hujjat aylanishi, Samaradorlik mezonlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jinoyat protsessida qonuniylikni ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishni ustuvor vazifa qilib belgilagan. Jinoyat ishini sudga yuborishdan oldingi yakuniy bosqichda prokuror nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. JPKning 382-moddasiga ko‘ra, prokuror surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari davomida qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu nazoratning eng keskin va samarali shakllaridan biri – ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan kelgan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarishdir. Ushbu institut, bir tomondan, tergovdagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, dalillar bazasini mustahkamlash vositasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki subyektiv yondashuvlar protsessual muddatlarning buzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetishi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qo‘shimcha tergovga qaytarish institutining huquqiy asoslari va ahamiyati. Prokuror tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarishning huquqiy asoslari JPKning 384 va 385-moddalari bilan belgilangan. Ushbu moddalar prokurorning ishni o‘rganish va uning natijasi bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatlarini nazarda tutadi.

Prokuror tomonidan tekshiriladigan masalalar (JPK 384-modda): Prokuror yoki uning o‘rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini o‘rganib chiqishi va quyidagi masalalarni sinchiklab tekshirishi shart:

- Ayblanuvchiga nisbatan ayblanayotgan qilmishning sodir etilgan yoki etilmaganligi va unda jinoyat tarkibining mavjudligi.
- Ayblangan qilmishning ishdagi dalillar bilan asoslantirilganlik darajasi.
- Ayblanuvchining isbotlangan barcha jinoiy qilmishlarining ayblov mazmuniga kiritilganligi.
- Jinoyatni sodir etganlikda fosh qilingan barcha shaxslarning ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilinganligi.

• Ayblashni yoki ishni to‘xtatishga sabab bo‘ladigan holatlarning borligi.

• Ayblanuvchi qilmishlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tavsiflanishi (kvalifikatsiyasi).

• Tergovga tegishlilik qoidalarining to‘liq rioya qilinganligi.

• Ehtiyot chorasining to‘g‘ri tanlanganligi.

• Fuqaroviy da’vo va boshqa mulkiy undirishlarni ta’minlash choralarining ko‘rilganligi.

• Jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning aniqlanganligi hamda ularni bartaraf etish choralarining ko‘rilganligi.

• Tergovning sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona o‘tkazilganligi, barcha vajlarning tekshirilganligi va himoyaning iltimosnomalari ko‘rib chiqilganligi.

• Ishni birlashtirish yoki ajratishda JPKning 332-moddasi talablariga rioya etilganligi.

• Ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasining JPKning 379, 380 va 381^{12}-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuzilganligi.

• Surishtiruvchi va tergovchi JPKning boshqa talablariga rioya qilganligi[1].

Prokurorning qarori (JPK 385-modda): Ushbu tekshiruv natijalariga ko‘ra, prokuror yoki uning o‘rinbosari ko‘pi bilan besh sutkada quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi shart:

➢ Ishni sudga yuborish uchun asoslar mavjud deb topib, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash.

➢ O‘z qarori bilan ayblov mazmunidan ayrim bandlarni chiqarib tashlash, yengilroq jinoyatni nazarda tutuvchi qonunni qo‘llash va shu o‘zgartirishlar bilan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash.

➢ Qo‘shimcha tergov o‘tkazish uchun ishni o‘z ko‘rsatmalari bilan surishtiruvchi yoki tergovchiga qaytarish.

➢ Surishtiruv o‘tkazilgan jinoyat ishini tergovga tegishlilik qoidalari buzilganligi aniqlangan yoki JPKning 381^{5}-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda dastlabki tergov organiga o‘tkazish.

➢ Ishni yuritishni to‘xtatish.

➢ Ishni tugatish.

➢ Amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish.

Alohida ta’kidlash lozimki, agar ayblovni to‘ldirish yoki uni og‘irlashtirish tomoniga yoxud haqiqiy holatlarga ko‘ra avvalgi ayblovdan jiddiy farq qiladigan tomonga o‘zgartirish talab qilinsa, prokuror yoki uning o‘rinbosari qo‘shimcha yoki o‘zgartirilgan ayb e’lon qilish uchun ishni qo‘shimcha tergovga qaytarishi shart (JPK 385-moddasi 2-qismi). Bu qoida prokurorning ayblovni o‘zgartirish vakolatining cheklanganligini ko'rsatadi, chunki ayblovni og'irlashtirish faqat qo'shimcha tergov natijasida mumkin.

[1]O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 384-modda. https://lex.uz/docs/-111460

Amaliyotda uchraydigan asosiy protsessual muammolar. Qo‘shimcha tergovga qaytarish mexanizmi muhimligiga qaramay, amaliyotda bir qator protsessual muammolar yuzaga keladi, ular tergov samaradorligini pasaytirib, fuqarolarning huquqlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tergov muddatlarini hisoblashdagi chalkashliklar va "osilib qolgan" vaqt muammosi: JPKning 351-moddasi 8-qismiga ko‘ra, ish qo‘shimcha tergovga qaytarilganda, qo‘shimcha tergov muddati tergovchi ishni o‘z yurituviga qabul qilgan paytdan e’tiboran bir oy doirasida belgilanadi. Biroq, amaliyotda ish prokurordan chiqib, tergovchiga yetib borgunga qadar o‘tgan vaqt (JPK 351-moddasi 5-qismi 3-bandi) ko‘pincha "osilib qolgan" vaqtga aylanadi va hisobga olinmaydi. Bu esa, ayniqsa, ayblanuvchining qamoqda saqlash muddatlari bilan bog‘liq jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, JPK 348-1-moddasi 4-qismida yo‘qolgan jinoyat ishi bo‘yicha qamoqda saqlash muddati tugagan bo‘lsa, ayblanuvchi darhol ozod qilinishi belgilangan. Bu norma, qo‘shimcha tergovga qaytarishdagi har bir muddatga e’tibor qaratilishi zarurligini ko‘rsatadi. Muddatlarning noto‘g‘ri hisoblanishi, ayblanuvchining asossiz ravishda uzoq muddat qamoqda saqlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishi hisoblanadi.

Prokuror ko‘rsatmalarining deklarativ xarakteri va uning oqibatlari. JPKning 382-moddasi 4-qismiga ko‘ra, prokurorning yozma ko‘rsatmalari surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun majburiydir. Biroq, amaliyotda prokuror ko‘rsatmalari ko‘p hollarda umumiy xarakterga ega bo‘ladi (“dalillarni to‘liq tekshiring”, “vajlarni ko‘rib chiqing”, “qo‘shimcha tergov harakatlari o‘tkazing”). Bu esa, tergovchining ishni o‘rganish va zarur tergov harakatlarini aniqlashda qiyinchiliklarga duchor bo‘lishiga olib keladi. Natijada, tergovchi ko‘rsatmalarni yuzaki bajarib, ishni yana prokurorga yuborishi, bu esa protsessual xarajatlarning oshishi va muddatlarning cho‘zilishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining "Prokuratura to‘g‘risida"gi Qonunining 28-moddasi 1-qismi 9-xatboshida prokuror jinoyat ishlarini surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo‘shimcha tergov o‘tkazish to‘g‘risidagi o‘z ko‘rsatmalari bilan qaytarishi nazarda tutilgan[2]. Ushbu ko‘rsatmalarning aniqligi va konkretligi tergov samaradorligi uchun muhimdir.

Dalillarning nomaqbulligi masalasi va himoya huquqi buzilishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.11.2017 yildagi PF-5268-sonli Farmonida protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan holda yoki noqonuniy uslublar bilan olingan dalillar, shu jumladan himoya huquqini buzgan holda olingan dalillar yuridik kuchga ega emasligi qat’iy belgilangan[3].

Oliy sud Plenumining 24.08.2018 yildagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida"gi qarorida ham bu tamoyil mustahkamlangan. Unga ko‘ra, faktdan olingan ma’lumotlar, agar ular qonunga xilof usullar orqali, jinoyat protsessi ishtirokchilarining qonun bilan kafolatlangan huquqlarini cheklash yo‘li bilan yoki JPK talablari buzilgan holda olingan bo‘lsa, nomaqbul hisoblanadi. Masalan, himoyachi ishtirokisiz so‘roq qilish himoya huquqining buzilishi bo‘lib, bunday holatda olingan ko‘rsatmalar nomaqbul dalillar qatoriga kiradi[4].

Prokuror ishni qo‘shimcha tergovga qaytarar ekan, tergovchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan ushbu protsessual xatolarni tuzatishni talab qiladi. Biroq, ba’zi hollarda, bu xatolarni "orqaga qaytib" tuzatishning imkoni bo‘lmaydi. Masalan, himoyachisiz o‘tkazilgan so‘roq natijasida olingan dalil,

---

[2] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida, 28-modda. https://lex.uz/docs/-106197

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.11.2017 yildagi PF-5268-son Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-3432426)

[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.08.2018 yildagi 24-son Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-3895986

keyinchalik himoyachini jalb qilish bilan o‘tkaziladigan qayta so‘roq orqali o‘z kuchini saqlab qolmasligi mumkin. Bu esa, dalillar bazasining zaiflashishiga va ish bo‘yicha adolatli qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Tergovga tegishlilik qoidalarining buzilishi. JPKning 345-moddasida tergovga tegishlilik qoidalari aniq belgilangan. Prokuror ishni o‘rganish jarayonida tergov organining o‘z vakolatidan tashqariga chiqqanini aniqlasa, ishni boshqa organga o‘tkazish uchun qaytaradi (JPK 385-moddasi 1-qismi 4-bandi). Bu holatda, avvalgi tergovchi tomonidan olingan dalillarning qonuniyligi shubha ostiga olinishi mumkin, chunki JPK 36-moddasiga asosan tergovchi o‘z yurituvidagi ish bo‘yicha qonuniy qarorlar qabul qilishga haqlidir. Agar tergovga tegishlilik buzilgan bo‘lsa, u tomonidan olingan dalillarning haqiqiy huquqiy kuchi savol ostida qoladi, bu esa protsessual barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish institutining bekor qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.11.2017 yildagi PF-5268-sonli "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni (uning 4-xatboshisi) va avvalroq qabul qilingan Prezidentning 21.10.2016 yildagi PF-4850-sonli Farmoniga asosan sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish tartibi bekor qilingan. Bu sud va tergov organlarining haqiqatni va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash, shuningdek, qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilish borasidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilgan edi[5].

Ushbu islohot natijasida, jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanmagan holatlarni sudda tekshirish yoki ayblovni tubdan o‘zgartirish zarurati tug‘ilganda, sud endilikda ishni prokurorga qaytarish huquqiga ega emas. Bu holat, o‘z navbatida, tergov sifatiga va prokuror nazoratiga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Chunki, sudning ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish vakolatining yo‘qligi, dastlabki tergov bosqichida barcha holatlarni to‘liq, har tomonlama va xolisona tekshirishni talab qiladi. Aks holda, tergovdagi kamchiliklar sud hukmi uchun to‘siq bo‘lib, oqlov hukmlarining ko‘payishiga yoki ayrim sud ishlarining yopiq tarzda qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Qo‘shimcha tergovga qaytarilgan ishlarni baholash tizimi va samaradorlik mezonlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.09.2017 yildagi 727-sonli qaroriga muvofiq, prokurorlar tomonidan sudga yuborilgan jinoyat ishlarining qo‘shimcha tergovga qaytarilishi salbiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu, ichki ishlar organlarining tergov bo‘linmalari xodimlari faoliyatini baholashda salbiy ball berilishiga olib keladi[6]. Bu baholash tizimi, bir tomondan, tergov sifatini oshirish va prokurorning ishni qo‘shimcha tergovga asossiz qaytarishining oldini olishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, prokurorlar yoki tergovchilar tomonidan bu ko‘rsatkichlarni yaxshilash maqsadida rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yish holatlariga sabab bo‘lishi mumkin. Ya’ni, tergovdagi jiddiy kamchiliklarga qaramay, ishni sudga yuborishga intilish, keyinchalik sudlovda adolatli qaror qabul qilishda to‘siq bo‘lishi mumkin.

Sud-tergov faoliyatini raqamlashtirishning roli va taklif etilayotgan yechimlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PQ-105-sonli "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorida sud-tergov faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatda "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu tizim qo‘shimcha tergovga qaytarish

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.11.2017 yildagi PF-5268-sonli "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 727-son qarori. https://lex.uz/docs/3353076

jarayonidagi ko‘plab muammolarni hal qilishga qodir hisoblanadi[7].

Shuningdek, Prezidentning 03.11.2025 yildagi PF-204-sonli "Raqamli prokuratura — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonida "E-tergov" axborot tizimini joriy etish masalasi ko‘tarilgan. Bu tizim quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi belgilangan:

- Elektron hujjat aylanishi va vaqtni tejash: "E-tergov" va "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimlari orqali (PQ-105-son Qarorining 1-bandi 2-xatboshisi) jinoyat ishi materiallarini prokurordan tergovchiga va aksincha, elektron tarzda uzatish, qo‘shimcha tergovga qaytarish jarayonidagi "yo‘ldagi vaqt"ni sezilarli darajada qisqartiradi. Bu tergov muddatlarini hisoblashdagi chalkashliklarning oldini oladi va ayblanuvchining asossiz uzoq muddat qamoqda saqlanish xavfini kamaytiradi.

- Prokuror ko‘rsatmalarining aniqligi va bajarilishi ustidan nazorat: Elektron tizimda prokuror ko‘rsatmalarini aniq va konkret shaklda kiritish mexanizmini joriy etish mumkin. Bu har xil tafsirga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi va tergovchiga qaysi harakatlarni amalga oshirish zarurligini aniq ko‘rsatib beradi. Tizim, shuningdek, ko‘rsatmalarning bajarilishi ustidan onlayn nazoratni ta’minlaydi bu esa ularning ijro etilishini majburiyligini oshiradi.

- Dalillarning maqbulligini ta’minlash va himoya huquqi kafolatlari: Raqamli platformalar protsessual harakatlarni video yozuv orqali majburiy qayd etishni kengaytirish imkonini beradi. Prezidentning 14.05.2020 yildagi 617-sonli Qonuni bilan JPKga kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra, bir qator protsessual harakatlar (jumladan, ushlash, shaxsiy tintuv) majburiy video yozuv bilan qayd etilishi shart[8]. "E-tergov" tizimida ushbu talablarning bajarilishi avtomatik tarzda nazorat qilinishi mumkin, bu esa dalillarning nomaqbul deb topilishi xavfini kamaytiradi. Shuningdek, tizim orqali himoyachining ishtirokini ta’minlash mexanizmlarini (masalan, himoyachiga onlayn xabarnoma yuborish, ishtirok etishi majburiy bo‘lgan harakatlar haqida eslatmalar) kengaytirish mumkin.

- Tergovga tegishlilik qoidalarining avtomatik nazorati: Elektron tizimda jinoyat ishining tergovga tegishliligini avtomatik ravishda aniqlovchi funksiyalarni joriy etish orqali bu boradagi xatoliklarning oldini olish mumkin. Ishni boshqa organga o‘tkazish zarurati tug‘ilganda, tizim orqali bu jarayonni tezkor va oson amalga oshirish mumkin.

Xulosa va kelgusi istiqbollar. Jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish instituti O‘zbekiston jinoiy protsessida muhim o‘rin tutadi. Uning samarali va qonuniy qo‘llanilishi tergov sifatini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta’minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda, Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, prokurorning bu boradagi mas’uliyati yanada oshmoqda, chunki sud tomonidan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish vakolatining bekor qilinishi tergovdagi kamchiliklarni dastlabki bosqichda bartaraf etishni talab etadi.

Raqamlashtirish jarayonlari va "E-tergov" kabi zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilishi, prokuror tomonidan qo‘shimcha tergovga qaytarish jarayonida uchraydigan ko‘plab protsessual muammolarni hal qilishga yordam beradi. Muddatlarning o‘z vaqtida bajarilishi, prokuror ko‘rsatmalarining aniqligi va bajarilishi ustidan elektron nazorat o‘rnatish, dalillarning maqbulligi bo‘yicha Prezidentning 10.08.2020 yildagi PF-6041-sonli Farmonida belgilangan

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.01.2022 yildagi PQ-105-son Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-5840465
[8] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2020 yildagi O‘RQ-617-son.

chora-tadbirlar samaradorligini ta’minlash ham o‘ta dolzarbdir. Tergovga tegishlilik qoidalariga rioya etilishini ta’minlash orqali ushbu institutning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bu esa, pirovard natijada, sudlarda oqlov hukmlarining yoki ishlarni suddan qaytarish holatlarining kamayishiga erishish, shuningdek, jamiyatning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchining mustahkamlanishiga olib keladi. Qonuniylik va adolat ustuvorligini ta’minlash orqali huquqiy davlat qurish yo‘lidagi muhim maqsadlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.11.2017 yildagi PF-5268-son Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-3432426
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.08.2018 yildagi 24-son Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-3895986
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.09.2017 yildagi 727-son. https://lex.uz/docs/3353076
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.08.2020 yildagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.2001 yildagi 257-II-son “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalari kiritish Haqida. https://lex.uz/docs/-106197
8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida 14.05.2020 yildagi O‘RQ-617-son. https://lex.uz/docs/4812307
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.01.2022 yildagi PQ-105-son Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-5840465
10. “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025 yildagi PF-204-son Farmoni. https://lex.uz/docs/7813709